

**AYOLLARNING IJTIMOIY HAYOTDAGI O'RNI VA ZAMONAVIY
AHAMIYATI.**

**Madaminova Dilxazina Farxodjon qizi,
Mahammadjonova Malika Mahmudjon qizi
Andijon Davlat Pedagogika Instituti Maktabgacha
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbek jamiyatidagi ayollar ro'li, yurtboshimiz tomonidan ularga qaratilayotgan e'tibor, ularning haq huquqlarini yanada mustahkamlash, gender tenglik tushunchasini haqida so'z yuritiladi. Vatanimiz mustaqillikga erishganidan so'ng ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan islohatlar mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: gender siyosati, ijtimoiy faollik, tadbirkorlik, gender tenglik, jamiyat, huquq, zo'ravonlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbek jamiyatidagi ayollar ro'li, yurtboshimiz tomonidan ularga qaratilayotgan e'tibor, ularning haq-huquqlarini yanada mustahkamlash, gender tenglik tushunchasi haqida so'z yuritiladi.

Hozirgi globallashuv jarayonida O'zbekistonda gender tenglik tushunchasi anchayin salmoqli o'sdi. Jamiyatimizda ayollar o'rni yanada mustahkamlanmoqda va albatta bu jamiyatimizdagi jonkuyar ayollarni o'rni beqiyos. Ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rnoi hamisha muhim me'zon bo'lib kelgan. Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro va xalqaro hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o'rni uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitiga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning yangi yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan say-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Jamiyatda ayollar o'rnini mustahkamlash shu jamiyat a'zolariga bevosita bog'liqdir. Ayollarni siyosatga jalb etishga, ta'lim olishini yanada mustahkamlash, haq huquqlarini to'laqonli ta'minlash, bilimli va ilimli bo'lishi uchun sharoitlar yaratish kabilalar kiradi. Yildan yilga brogan sari ayollar har sohada faol ishtiroki ko'zni quvnatadi. Ayol ojiza emas, u faqat uyda o'tirish farzand tarbiyalash uchun yaratilmagan. Ayol kishi olma va foziladir. Zamondosh ayollarimiz jamiyatda teng huquqli, yaratuvchi va bunyodkorlar safida faol ishtirokchigina emas, balki o'zlarining bilimi, kasbiy malakasi bilan ko'pgina jabhalarda yetakchi mavqelarni egallab turibdi. Bugun biror soya yo'qki unda ayollar ishlamayotgan bo'lsa. Ular shifokor, o'qituvchi, fermeru tadbirkor, sanatkoru muhandis, olimu arbob. Ayniqsa, tibbiyot, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va sport kabi sohalarning ravnaqini xotin-qizlarsiz also tasavvur etish mumkin emas. Ayollarimizni siyosat maydoniga

shahdam qadamlar bilan kirib kelishi ham jamiyatdagi ayollar o’rnini yana bir bor mustahkamladi. Misol qilib Oliy majlis senat raisi: Tanzila Norboyevani olishimiz mumkin. Ayol kishini qanday kuch-qudratli fikrga ega ekanini boshqaruv jarayonida oqilona ish yuritishi bilan ayollarimiz haq-huquqlarini yanada mustahkamladi. Yurtimizda fidokorona mehnat qilayotgan xotin-qizlarning ulushi tibbiyotda 77% ni, ta’lim sohasida 74%ni, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida esa 46%ni tashkil etmoqda. Agar 2017-yilda xotin-qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 27%ni tashkil etgan bo’lsa bugungi kunda 33%ga siyosiy partiyalarda 40% dan 47%ga yetdi. Bilimli tashabbuskor va faol ayollarimizdan 2 ming nafarga yaqini davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilmoqda. Xususan, Oliy majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 25% xotin-qizlardan iborat. Bu statistik ma’lumotlar albatta kishi ko’zini quvnatadi. Bu raqamlar O’zbek jamiyatida ayollarning o’rnini naqadar beqiyosligini ko’rsatadi. Va bu butun dunyoda O’zbekiston Respublikasida ayollarga nisbatan qanday munosabatda, ayolning o’rnini qandayligini ko’rsatadi. Har sohada kamchiliklar bo’lgandek jamiyatda ayollar o’rnini mustahkamlash huquqlarini ta’minalashda ham turli qiyinchilik va to’siqlarga duch kelinmoqda. So’nggi yillarda xotin-qizlarga nisbatan zo’ravonlik holatlari dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqmoqda. Bu illatni yo’qotish uchun huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish maqsadida O’zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi qonunlari qabul qilindi, Senatda xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha komissiyasi tuzildi. Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo’llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishslash maqsadida “Ayollar daftari” hamda “Yoshlar daftari” tizimlari yo’lga qo’yildi. Bu kabi tizimlarni mamlakatimizda targ’ib qilinish ayollarga nisbatan zo’ravonlik omillarini birmuncha pasaytirdi. “Ayollar daftari”ning joriy etilishi jamiyatimizda o’z o’rnini topolmayotgan, eri tomonidan zo’ravonlikka uchragan yoki boquvchisini yo’qotgan ayollar uchun o’zlarini kelajagini yaratish uchun jamiyatdagi o’z ijtimoiy mavqeini yanada mustahkamlash uchun bir debocha bo’ldi desak mubolag’ a bo’lmaydi. Jamiyatning teng yarmini ayollar tashkil etadi, ular ham erkaklar bilan bir xil teng huquqga ega. Gender tenglik jamiyatimizda keng targ’ib etilayotganligi bois anchayin ayollarga bo’lgan kamsitishlar, tahqirlashlar birmuncha kamaygan. Ayollar sog’ligiga davlatimiz tomonidan anchayin kuchli e’tibor qaratilmoqda. Sabab jamiyatning sog’lomligi, avvalo, xotin-qizlarning qanchalik sog’lom ekan bilan tavsiflanadi. Yurtboshimiz aytganlaridek, “...on ava bola sog’ligiga e’tibor-jamiyatga, keljakka e’tibordir” deb bejiz takidlamaganlar.

Xulosa: Hulosa qilib aytganda, jamiyatda ayol qadr-qimmati, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo’lmoqda. Jamiyatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ifoda etish, davlat va jamiyat munosabatlarida ayollarning o’rni va rolini yanada oshirish, ularning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy sohalarda manfaatlarini himoya qilish masalasi Yangi O’zbekistonda Uchinchi Renessans avlodini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ayol gul kabidir, uni qanchayin parvarish qilinsa u o’zidan fayz barokat taratadi. Shunday ekan

ayollarni qadrlamoq kerak ularni ilmli va bilmli bo'lishlari uchun shart sharoitlar yaratish, unga ojiza kelajakdagi kasbi faqat uy Bekasi sifatida qaralmaslik kerak. Aksincha uning fikrlarini yanada teranlashtirish, olgan bilimlarini to'g'ri yo'naltira olsak ayol kishi jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini osongina egallaydi va albatta yurtiga o'z ishlari, ilmiy izlanishlari bilan hissa qo'shadi. Qanday jamiyat mustahkam bo'ladi albatta ayollarni e'zozlagan jamiyat. Ayol ona, ayol opa, ayol singil bularni jamiyat qancha ardoqlasa el-yurt shuncha rivojlanib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayolning jamiyat hayotdagi o'rni (genderi.org)
2. O'RQ-562-con 02.09.2019. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida (lex.uz)
3. Ayolning jamiyat ko'zgusi (yoshlarovozi.uz)
4. Ayol va olam HURRIYAT (uzhurriyat.uz)
5. Egamberdiyeva, D., & Kuchkorova, K. (2023). Development of methodological programs in a foreign language. Interpretation and researches, 1(9).
6. Egamberdiyeva, D., & Uzokboyeva, D. (2023). METHODS OF TEACHING SPEECH ETIQUETTE IN ENGLISH LESSONS. Interpretation and researches, 1(9).
7. Frunzevna, M. Z., & Odilbekovna, R. N. (2024). TIL O'RGANISHDA O'YINLASHTIRISH VA BOSHQA INNOVATSION YONDASHUVLAR. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 9(9), 11-13.
8. Матниязова, Ф. Ф., & Мадрахимова, З. Ф. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 4(1), 116-118.
9. Мадрахимова, З. Ф., Баркулиева, Л. Р., & Юсупова, М. К. (2024). СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ: ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 165-169.
10. Мадрахимова, З. Ф. (2024). Литературные Загадки В Детской Поэзии: Описание, История Создания. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(1), 166-171.
11. Мадрахимова, З. Ф. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ СЛОВ ОТ ТЮРКСКИХ ОСНОВ С ПОМОЩЬЮ РУССКИХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 142-145.
12. Мадрахимова, З. Ф. (2023). ЕСЛИ НЕ ЖИТЬ СОВРЕМЕННОСТЬЮ-НЕЛЬЗЯ ПИСАТЬ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 570-572.

- 13.Suyarov, A. (2023). INNOVATION USULLAR-TALABALARING TA'LIM VA KOGNITIV FAOLIYATINI TASHKIL ETTIRISHNING YANGI TARZI. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).
- 14.Suyarov, A., & Axmadov, H. TOG JINSLARI VA ULARNING FIZIKAVIY-MEXANIKA VIY XOS SALARI. ТОШКЕНТ-2021, 28.
- 15.Samiyeva, G. (2024). Ijtimoiy sohada maqsadli jamg ‘armalar va ijtimoiy fondlar faoliyatini takomillashtirishning xorij tajribasi. THE INNOVATION ECONOMY, 2(02).
- 16.Самиева, Г. Т. (2024). Анализ Бытового Обслуживания В Республике Узбекистан. Miasto Przyszlosci, 51, 167-171.
- 17.Самиева, Г. Т. (2024). РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ СЛУЖИТ ПОВЫШЕНИЮ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ. Экономика и социум, (5-1 (120)), 1597-1600.
- 18.Fayziyeva, S., Samiyeva, G., & Yuldasheva, S. (2024). Possibilities of using economic mechanisms when organizing fruit and vegetable cooperatives. In E3S Web of Conferences (Vol. 539, p. 02024). EDP Sciences.
- 19.Samiyeva, G. (2023). AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI. THE INNOVATION ECONOMY, 1(03).
- 20.Samiyeva, G. T. (2023). IJTIMOIY FONDLAR VA MAQSADLI JAMG ‘ARMALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.
- 21.Samiyeva, G. (2023). O ‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH ISTIQBOLLARI. THE INNOVATION ECONOMY, 1(02), 35-49.
- 22.Khamidova, M. A., & Orifkhonova, N. O. (2024). THE IMPORTANCE OF MICRO AND MACROELEMENTS IN MICROCLONAL PROPAGATION OF POTATOES. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(1), 195-197.